
"Shodiyona" mahallasiga ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmog'i tortilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan «Shodiyona» mahalla fuqarolar yig'inidagi Sohibqiron Temur ko'chasiga 800 metr ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmog'i tortilmoqda.

Olib borilayotgan amaliy ishlardan mahalla ahli hursand. Ko'rsatilayotgan e'tibordan mamnun bo'lgan fuqarolar o'z minnatdorchiliklarini bildirmoqdalar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-01-23 09:22:01